

WORDLY KNOWLEDGE

ONLINE KONFERENSIYA

https://zenodo.org/record/7582855#.Y9dEqbfowVE

Mustafoyeva Mushtariy Zohid qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Sharq svilizatsiyasi va tarixi fakulteti

Fors-ingliz guruhi 2-bosqich talabasi

Ogahiy hayoti va ijodi - yoshlar tarbiyasi uchun na’muna

Annotatsiya: Mazkur maqola Ogahiy hayoti va ijodining yoshlar tarbiyasidagi òrni va asarlarining e'tiborli tomonlariga bağishlab yozilgan. Xususan unda serqirra ijodkorlik mahorati ochib berilgan.

Kalit sòzlar: Ogahiy, tarixnavis, Xorazm, tarjimashunos, she'riyat.

Mashhurligiga kòra uch toifa shoirlar bor.Birinchisi, hayot davrida mashhur bòlib ,keyin unutilgan . Ikkinchisi, hayotligida nomi chiqmasa-da, vafotidan sòng dovruğ qozongan . Uchinchisi foniy hayotidayoq boqiy nom qozongan va xalq kònglidan joy olgan.Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) uchinchi toifaga mansub shoirdir.Xiva xonligi davrida turkiy tilda eng kòp bitilgan nazmiy va nasriy asarlarning muallifi, Turkiy til tarjimonlik maktabining Zahiriddin Muhammad Bobur lafzi bilan aytganda " eng kòp va eng xòb" ijodkori va peshqadami edi.Uning ijodi salmoqli.Òrganishlar davomida òzining tarixiy asarlari bilan xorazmning yarim asrdan kòproq davrini qamrab olgan

qimmatli tarixiy solnoma yaratgai va Òrta Osiya tarixshunosligi rivojiga salmoqli hissa qòshgani e'tirof etishga loyiq. U ketma - ket sakkiz xon hukmronligi davrida yashab ijod qilgan.U xonlarning harbiy yurishlarida qatnashib, barcha voqealarni òz kòzi bilan kòrgan, keyinchalik òz tarixiy asarlarida tòǵri aks ettirgan . Muhammad Rizo Ogahiy juda sermahsul va serqirra olim edi . Katta she'rlar tòplami va oltita tarixiy asar yaratish bilan birga , tarjima sohasida ham 187 ta asar yaratgan . Ogahiy fors tilidan òzbek tiliga jami 19 ta badiiy ,tarix va boshqa janrdagi asarlarni tarjima qilgan.Ogahiy ijodini kuzatar ekanmiz , uning lirikasi hanuzgacha òz ta'sir kuchini saqlab kelmoqda . Chunki u ma'lum tarixiy sharoitda òz xalqining ahvolini , ruhini , tushunchasini , real yorita bildi , òsha davr ruhini ajoyib lirikalar orqali ochib bergan . Shu bilan birga Ogahiy ǵazallaridagi uyǵunlik , turli fasllarga baǵishlab yozgan ǵazallari hali - hanuzgacha yoshlarni zavqlantirib kelmoqda . Ogahiy ǵazallarida yoshlar e' tiborini tortadigan tomonlardan biri , haqiqatga intilish , insonga muhabbat , inson taqdiri uchun ǵamxòrlik va uni e'zozlash ǵoyalari yotadi. Xususan , O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 may kuni “Adiblar xiyoboni”ga tashrifi chog‘ida adabiyot tarixida munosib o‘rin tutgan ijodkorlar asarlarini o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarning ongiga singdirish vazifalari bo‘yicha Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasiga “Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna” yo‘nalishida berilgan topshiriqlarni amalga oshirish borasida ham kòp ishlar amalga oshirilmoqda . Bundan kòzlangan maqsad Ogahiy hayotini abadiylashtirish , uning òlmas lirikasini , haligacha qòshiq qilib kuylanyotgan orombaxsh ǵazallarini kelgusi avlodga yetkazish yòlida sa'y - harakatlar amalga oshirilmoqda . Yoshlarimiz Xorazmning uluǵ shoiri Muhammad Rizo Erniyozbek òǵli Ogahiy yodga olinganda uning she' riyat , tarjima , tarixnavislik jabhasidagi faoliyatini faxr bilan e' tirof etishlari hamda uning beqiyos asarlarini yanada boyitishlari lozim.Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ogahiyshunoslik tushunchasi ma’lum bir shaxs merosi tadqiq va targ‘ibidan iborat emas. Umuman, shunday insonlar borki, ularning merosini o‘rganish butun davr yoki davrlarni jiddiy o‘rganish, shuningdek, qator sohalar tutashligini talab qiladi. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, biror fenomen ijodkorning ta’sir doirasi, ulug‘vorlik mezonlari uning kelgusi avlodga qay darajada ko‘lamli meros qoldirgani bilan o‘lchanadi. Shuning uchun navoiyshunoslik faqat Alisher Navoiy shaxsiyati bilan cheklanmay, o‘zbek adabiyotining barcha davrlari, ijtimoiy fanlarning deyarli barcha sohalari bilan bog‘liq bo‘lgani kabi o‘zida asosan Muhammad

Rizo Ogahiy merosi tadqiqini nazarda tutuvchi ogahiyshunoslik o‘zbek adabiyoti, tili, xalqimiz tarixi, tarjimashunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik, pedagogika, etika, estetika kabi qator sohalarni ham qamrab oladi.

Xulosa òrnida shuni ta'kidlash joizki, Boy adabiy merosga ega XIX asr Xorazm adabiy muhitini Ogahiysiz tasavvur qilish qiyin. Ana shu katta adabiyotning vorisi Ogahiy hazratlari Feruzdek, Komil Xorazmiy, Komil Devoniylardek zabardast shogirdlar yetishtirdi, o‘zidan katta adabiy-tarixiy meros qoldirdi.Ogahiy avvalambor barakali ijod qilgan ulkan shoir. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Munis va boshqa ko‘plab shoirlar g‘azallariga muxammaslar bog‘lab, Xorazm adabiy muhiti ravnaqiga katta hissa qo‘shgan. Birgina Navoiyning qirqqa yaqin g‘azallariga chiroyli muxammaslar bitib, hazrat ijodining xalq o‘rtasida ommalashishiga keng yo‘l ochgan. Shunday ekan biz yoshlar uning asarlarini chuqur òrganishimiz , Inson tushunchasini Ogahiydek ulkan maqomga olib chiqishimiz, hamda vorislari sifatida boy adabiy merosini asrab - avaylashimiz va uni yanada boqiyligini ta'minlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Rizo Ogahiy Asarlar: 5 - jild . T; 1978 .
2 . Jamoling jilvasi . Toshkent."Òzbekiston" 2016.